

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
O‘zbek tilida chop etilgan sohaviy, izohli va imlo lug‘atlarini o‘zida jamlash va foydalanish uchun mo‘ljallangan elektron platformani yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - foydalanuvchilar uchun qulay interfeysga ega bo‘lgan elektron platforma yaratiladi va sinovdan o‘tkaziladi; - yaratiladigan elektron platformada yangi qabul qilinayotgan atamalar bo‘yicha jamoatchilik muhokamasida bildirilgan taklif, fikr va tavsiyalarni qayd etib borish moduli ko‘zda tutiladi; - platforma tasdiqlangan yangi so‘z va atamalarni o‘zida aks ettiradigan elektron reyestr yuritish funksiyasini o‘z ichiga oladi; - o‘zbek tilida chop etilgan sohaviy, izohli va imlo lug‘atlarini o‘zida jamlash va foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamentida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamentining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.